

"MAKON – YO'L TASHABBUSI" LOYIHASINING MARKAZIY OSIYOGA MANFAATLI HAMDA SALBIY AHAMIYATI

Jo'rayeva Rufaydo

Jahon Iqtisodiyoti va Diplomatiya Universiteti 3-kurs talabasi

Annotatsiya: *Xitoyning 2013-yida boshlangan "Belt and Road Initiatives" (BRI) loyihasi Markaziy Osiyo davlatlaridagi ta'sirini kuchaytirmoqda. Olib boriladigan tadqiqot 2013-2023-yillar oralig'ida Xitoyning Qirg'iziston, Qozog'iston va O'zbekistonga iqtisodiy-siyosiy strategiyasini ikki jihatdan tahlil qiladi. Bir tomondan, bu infratuzilma modernizatsiyasi, investitsiyalar oqimining kirib kelishi, hamda eksport hajmini rag'batlantirishi, boshqa bir tomondan, mamlakatning qarzdorlik xavfiga, ekologik tahdidlar hamda mehnat munosabatlaridagi kamchiliklarga, ishlab chiqarish va mahalliy bozorlar ustidan strategik nazorat kuchayishiga olib kelishi nazarda tutilgan. Xususan, loyihaning asosiy maqsadi - Xitoyning Markaziy Osiyoning neft-gaz resurslariga kirish, transport koridorlarini ochish va ularni diversifikatsiya qilish istagi, hamda Xitoy valyutasi yuanning mintaqaviy valyuta sifatida muomalada bo'lishini maqsad qilgan. Xulosa qilib aytganda, BRI Markaziy Osiyo uchun ham xavfni ham imkoniyatni ifodalashiga qaramasdan, Markaziy Osiyo davlatlarining iqtisodiyoti barqarorligi uchun mahalliy sanoatlarini himoya qilishga, ekologik standartlarni joriy etishga, shuningdek, mehnat huquqlarini mustahkamlashiga bog'liq.*

Kalit so'zlar: *BRI (Belt and Road Initiatives), Markaziy Osiyo, investitsiya, infratuzilma loyihalari, qarzdorlik xavfi, O'zbekiston-Xitoy Hamkorligi, tahdidlar, geosiyosiy ta'sir, mintaqaviy integratsiya, strategik manfaatlar.*

"Bir kamar, bir yo'l" tashabbusi (BRI) Xitoy Xalq Respublikasi rahbariyati tomonidan 2013-yilda boshlangan bo'lib, u Yevroosiyoning deyarli barcha mamlakatlarini, shuningdek, Xitoyning g'arbiy qo'shnilari bo'lgan Markaziy Osiyoning beshta davlatini Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O'zbekistonni qamrab oladi. Ushbu "Makon – Yo'l Tashabbusi" (Belt – Road Initiative, qisqacha BRI) loyiha tashabbusi Osiyo, Afrika va Yevropa qit'alaridagi bir necha davlatlar o'rtasida dastlabki Osiyo va Yevropani bog'lagan qadimiy Buyuk Ipak Yo'lini tiklash maqsadida, shuningdek, iqtisodiy aloqalarni va hamkorlik rivojini yanada yaxshilashga qaratilgan loyiha bo'lib, bu tashabbus Xitoy prezidenti Si Tszinpinning yirik iqtisodiy rivojlanish va tijorat loyihasi hisoblanadi. "Belt and Road tashabbusi" deb ataladigan ushbu loyiha - avtomobil yo'llari, temir yo'llar, dengiz portlari, elektr tarmoqlari, neft va gaz quvurlari va yana bir qancha tegishli infratuzilma loyihalari tarmog'ini o'z ichiga oladi.

BRI orqali Xitoy hukumati hamkor mamlakatlarda infratuzilmani rivojlantirish, ishlab chiqarish quvvatiga investitsiyalar, savdoni osonlashtirish bo'yicha chora-tadbirlar, inson va madaniy almashinuvlar kabi turli xil aralashuvlarni qo'llab-quvvatlashni taklif qiladi. Bu dengizga chiqa olmagan va nisbatan geografik jihatdan yakkalanib qolgan Markaziy Osiyo

iqtisodlari uchun nafaqat Xitoy bilan, balki dunyoning boshqa qismlari bilan aloqalarini yaxshilash imkoniyatini yaratishi mumkin. Ushbu mamlakatlarning tashqi savdosi eng ko'p ta'sir ko'rsatadigan sohalaridan biri bo'lib ko'rinadi va Markaziy Osiyoda BRI mintaqaning eksport salohiyatini hamda makroiqtisodiy samarasini oshirishiga umid qilinadi. Hozirgacha bu iqtisodlar asosan xom neft, tabiiy gaz, metallar va ayrim qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qiladi va ular ishlab chiqarilgan mahsulotlar va xizmatlarning keng spektrini import qiladi.

Loyiha ikki qismdan iborat bo'lib, birinchisi "Ipak yo'li iqtisodiy kamari" deb nomlanadi, u asosan quruqlikka asoslangan va Xitoyni Markaziy Osiyo, Sharqiy Yevropa va G'arbiy Yevropa bilan bog'lashi kutilmoqda. Ikkinchisi esa, dengizga asoslangan va Xitoyning janubiy qirg'oqlaridan O'rta er dengizi, Afrika, Janubi-Sharqiy Osiyo va Markaziy Osiyoga boradigan "XXI asr dengiz ipak yo'li" deb nomlanadi. Ular quyidagi oltita iqtisodiy yo'laklarni o'z ichiga oladi:

- 1) G'arbiy Xitoyni G'arbiy Rossiya bilan bog'laydigan Yangi Yevroosiyo quruqlik ko'prigi;
- 2) Shimoliy Xitoyni Mo'g'uliston orqali Sharqiy Rossiya bilan bog'laydigan Xitoy-Mo'g'uliston-Rossiya koridori;
- 3) G'arbiy Xitoyni Markaziy va G'arbiy Osiyo orqali Turkiya bilan bog'laydigan Xitoy-Markaziy Osiyo-G'arbiy Osiyo koridori;
- 4) Janubiy Xitoyni Hind- Xitoy orqali Singapur bilan bog'laydigan Xitoy-Hind-Xitoy yarim oroli koridori;
- 5) Janubiy G'arbiy Xitoyni Pokiston orqali Arabistonga dengiz yo'llari bilan bog'laydigan Xitoy-Pokiston koridori;
- 6) Janubiy Xitoyni Bangladesh va Myanma orqali Hindistonga bog'laydigan Bangladesh-Xitoy-Hindiston-Myanma koridori.

Shuningdek, Ipak yo'lidagi dengiz Xitoyni Singapur-malayziya, Hind okeani, Arab dengizi va Hormuz bo'g'ozi orqali O'rta yer dengiz bilan bog'laydi.

Nima uchun Xitoy BRI Markaziy Osiyoga qiziqish bildirmoqda?

Buning ortida bir nechta sabablar bor:

1. Xitoy Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun juda jozibador, chunki Xitoy respublikasi *neft va gaz* iste'moli bo'yicha dunyoda yetakchi o'rinda turgan bir vaqtda Markaziy Osiyo esa bu kabi tabiiy resurslarga o'ta boy hisoblanad. Xitoy iqtisodiyoti esa bunga hech qanday muhtoj va to'siqlarsiz kirishni xohlaydi. Shu bilan birga, Markaziy Osiyoning ayrim davlatlari geografik jihatdan Xitoy bilan g'arbiy chegaradoshligi yana bir sabab bo'la oladi.
2. Xitoy o'z bozorlarini kengaytirishga harakat qilmoqda. Biroq, Xitoy kompaniyalar, ayniqsa an'anaviy sanoatda, ichki rivojlanish uchun cheklangan maydonga ega va xorijda yangi imkoniyatlar izlaydi.
3. Xitoyning saxovatli donor va investor davlati kabi roli haqidagi rasmiy ritorikaga qaramay, Vashington universiteti Markaziy Osiyo dasturi tadqiqodchisi M. Laruel Jorj xulosasida shunday deydi: "BRI birinchi navbatda Xitoyning ichki iqtisodiy

muammolariga javobni past qiymatli modeldan ("Xitoyda ishlab chiqarilgan") qo'shimcha qiymatli ishlab chiqarish modeliga ("Xitoy tomonidan yaratilgan") o'tganda oladi". Shubhasiz, Xitoy, energetika sohasida kompaniyalarni qurilishi yoki eskirgan elektr stantsiyalarini yangilashda ko'mirdan foydalanishda faoldir.

4. Mintaqa arzon ish haqi, raqobat pastligi bilan hamda hukumatning strategik sohalardagi xorijiy investorlar uchun soliq imtiyozlari va boshqa subsidiyalar berishi bilan ajralib turadi.

5. XXR Markaziy Osiyo bilan BRI ning yanada kengaytirilgan hamkorlik bosqichini tuzdi. Bu bitimga ko'ra Xitoy kompaniyalari 2005-2020-yillar mobaynida Markaziy Osiyodagi to'rtta davlatga qariyb 50 milliard AQSH dollar qiymatida sarmoya kiritdi. (35,58 milliard AQSh dollar Qozog'istonga, 4,73 milliard Qirg'izistonga, Tojikistonga 2,15 milliard, O'zbekistonga 5,79 milliard AQSH dollari).

China Global Investment Tracker ma'lumotlariga ko'ra, 2013-2020-yillarda Xitoyning O'zbekistonga kiritgan sarmoyalari va shartnomalari jami 2,24 milliard AQSH dollarini tashkil etib, 720 million dollar ko'chmas mulk, 560 million dollar transport, 340 million energiya, 440 million dollar kimyoviy moddalar va AQSH dollarini tashkil etdi. So'nggi uch yilda Xitoyning to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi 3,9 milliard AQSH dollarini tashkil etgan va hukumat 2024-yilga borib XXRdan kiritiladigan yillik investitsiyalar hajmini 5 milliard dollargacha oshirishni maqsad qilgan. O'zbekistonda 2020-yil boshida Xitoy sarmoyasi ishtirokida 1652 ta korxona faoliyat ko'rsatgan (jami 16%). Ulardan 531 tasi 2019 yilda tashkil etilgan bo'lib, 120 dan ortiq kompaniya 100% Xitoy kapitaliga ega. O'zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasi (FPU) ma'lumotlariga ko'ra, kasaba uyushmalari atigi 15 ta Xitoy korxonasida mavjud. O'zbekiston to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar bo'yicha agentlikni tuzdi va Erkin iqtisodiy zonalar rezidentlarining investitsiya hajmi 10 million AQSh dollaridan oshsa, 10 yil muddatga, 5-10 million AQSh dollari miqdorida sarmoya kiritilsa, 7 yil muddatga barcha turdagi soliqlardan ozod qilinadi. Potentsial xitoylik investorlar bilan yaqindan hamkorlik qilish maqsadida O'zbekiston hukumati 2019-yil dekabr oyida Xitoyda O'zbekiston investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi vakolatxonasini ochish to'g'risida qaror qabul qildi.

Joriy yilning 17-18-oktyabr kunlarida Xitoyning Pekin shahrida "Bir Makon – Bir Yo'l" loyihasi doirasida bo'lib o'tgan sammitda O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ham ishtirok etdi. 148ta (XXR bilan 149ta, 2023-yil aprel oyi) davlat va 30ga yaqin xalqaro tashkilotlar tomonidan investitsiya kiritish uchun qabul qilingan. Infratuzilma loyihalariga portlar, temir yo'llar, avtomobil yo'llari, elektr stansiyalar, aviatsiya va telekommunikatsiyalar kiritilgan.

BRI ning Xitoy uchun ahamiyati. BRI Xitoy uchun muhim ahamiyatga ega. Chunki u o'zining ichki o'sishini oshirishga qaratilgan va mamlakatning iqtisodiy diplomatiya strategiyasining bir qismidir. Shinjon kabi kam rivojlangan chegara hududlarini qo'shni davlatlar bilan bog'lash orqali Xitoy iqtisodiy faollikni oshirishni kutmoqda.

Ishlab chiqarish bo'yicha har qanday ortiqcha quvvat BRI yo'nalishlari bo'ylab hududlarga samarali tarzda yo'naltirilishi mumkin. Xitoy turli infratuzilma loyihalariga 1 trillion dollardan ortiq sarmoya kiritilishini e'lon qildi va ishtirokchi mamlakatlarga arzon kreditlar berish orqali ularni moliyalashtirmoqda. Qirg'iziston va Tojikiston kabi ko'plab ishtirokchi davlatlar Xitoy tomonidan ushbu davlatlardagi mahalliy elektr uzatish



loyihalariga katta sarmoya kiritilishi tufayli BRI ni qo'llab-quvvatlaydi. Dengizga chiqish imkoniga ega bo'lmagan Nepal yaqinda BRIga Xitoy bilan transchegaraviy aloqani yaxshilashga yordam beradigan bitim imzolagan holda qo'shildi va Pokiston janubi-g'arbiy Xitoyni Pokiston bilan bog'laydigan 46 milliard dollarlik Xitoy Pokiston iqtisodiy koridoridan foyda ko'radi; Arab dengizi yo'llariga kirish. Xitoy bu tashabbusni mintaqaviy yetakchi sifatida chiqish imkoniyati deb biladi shu bilan birga kelajakda BRI mintaqasida foydalanish ortishi bilan Xitoy yuanining o'sishi Xitoy uchun kutilayotgan katta ahamiyatga egadir.

Xulosa qilib aytganda, ushbu loyiha-tashabbus global miqyosda katta ahamiyatga ega bo'lib, u o'zaro Markaziy Osiyo mintaqasidagi davlatlar bilan hamkorlikni olib borar ekan, bu sezilarli darajada o'z kuchini ko'rsatmay qolmaydi. Yuqorida aytib o'tilganidek, bu tashabbus - iqtisodiy, siyosiy, geosiyosiy, infratuzilma, transport, energetika, ishlab chiqarish sohalari, hamda yana bir qator strategik manfaatlarni ko'zda tutgan holda faoliyat yuritishni nazarda tutsa-da bu mintaqadagi davlatlar, xususan, O'zbekiston uchun qator imkoniyatlar va ustuvorliklar eshigi bo'lishi bilan bir qatorda xavf-xatarlar eshigi bo'lishi ham mumkin. Jumladan, minglab yangi korxonalar tashkil etildi, erkin iqtisodiy zonalarga xorijiy sarmoyadorlar jalb qilindi, strategik sohalarda texnologik yangilanishlar boshlandi. Bunday islohotlar milliy iqtisodiyotni xalqaro tizimga integratsiya qilishda katta ahamiyat kasb etmoqda.

Biroq, BRI loyihasi faqatgina iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan cheklanib qolmay, mintaqaviy suverenitet, ekologik xavfsizlik, qarzdorlik darajasi, mehnat huquqlari kabi

muhim omillarni ham tahdid ostiga qo'yishi mumkin. Xitoy kapitalining ustunligi, mahalliy bozorlar ustidan strategik nazoratning oshishi, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning raqobatga bardosh berolmasligi kabi holatlar uzoq muddatda mintaqa iqtisodiy mustaqilligiga putur yetkazishi mumkin. Ayniqsa, ayrim davlatlarning BRI doirasida katta miqdordagi qarz yuki ostida qolishi – ularni Xitoy siyosiy ta'siriga yanada yaqinlashtirib qo'yish ehtimolini kuchaytiradi.

Demak, BRI – bu nafaqat taraqqiyot vositasi, balki strategik sinovdir. O'zbekiston va boshqa mintaqa davlatlari bu tashabbusda ishtirok etar ekan, birinchi navbatda o'z milliy manfaatlarini himoya qilgan holda, investitsiyalarning ijtimoiy-iqtisodiy natijadorligini chuqur tahlil qilishi, ekologik standartlarga qat'iy rioya qilinishi va mahalliy ishchi kuchining mehnat huquqlari kafolatlangan bo'lishini ta'minlashi zarur. Shuningdek, turli davlatlar va tashkilotlar bilan muqobil hamkorlik yo'llarini rivojlantirish orqali bir yoqlama iqtisodiy bog'liqlikdan saqlanish ham strategik maqsad bo'lishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. "How China's One Belt One Road (OBOR) Initiative Works and its goals" 2020-yil. Kirish tartibi: <https://www.investopedia.com> (m.q.s:3.12.2023)
2. [Roman Mogilevski](#). Possible Impact of the Belt and Road Initiative on Foreign Trade in Central Asia. Kirish tartibi: <https://caseresearch.medium.com> (m.q.s:3.12.2023)
3. <https://thediplomat.com/2018/06/chinese-companies-central-asian-survival-strategy/>
4. China's Belt and Road Initiative and its impact in Central Asia. Washington, 2018. (m.q.s:3.12.2023)
5. <https://www.aei.org/china-global-investment-tracker/> (m.q.s:3.12.2023)
6. <https://podrobno.uz/cat/uzbekistan-i-kitay-klyuchi-ot-budushchego/uzbekistan-nameren-dovesti-ezhegodnyy-obem-privlekaemykh-kitayskikh-investitsiy-do-5-mlrd-/>
7. Harri Talega. "Belt and Road Initiative in Central Asia" ITUC 2021. Page 7-17. Pdf. Kirish tartibi: <https://www.ituc-csi.org> (m.q.s:3.12.2023)